XALQ DEPUTATLARI G'OZG'ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-aprel VI-56-37-5-210-K/24 G'ozg'on shahar

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida.

Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 29-martdagi 12-238/20-07-38/240-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 126-143-moddalariga muvofiq shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 29-martdagi 12-238/20-07-38/240-sonli xatiga ko`ra shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **84 500 000 (sakson to`rt million besh yuz ming) so`m** mablag` **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Muhammadjonov)larga:

mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



BAZAROV AZIM
DANIKULOVICH

Xalq deputatlari G'ozg'on shahar
Kengashining
2024-yil 15-apreldagi
VI-56-37-5-210-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo`naltirilgan mablag‘lar

	Tashkilot va muassasa nomi	**Maqsadi**	**Ajratilgan mablag‘ (mln.so‘mda)**
			1-chorak DROBK
1.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Navro`z bayrami tadbiri uchun (sahna va led ekran ijarasi uchun)	17
2.	Obodonlashtirish boshqarmasiga	4 dona Motokultivator xarid qilish uchun	45
		Shahar markazini obodonlashtirish hamda mavsumiy gullar xarid qilish uchun	20
3.	Sport maktabiga	Shahar mini-futbol bo`yicha jamoasining viloyat birinchiligida ishtiroki uchun badal puli	2.5
	Jami		84.5